

**\*CHET TILLARNI O‘QITISHDA YANGI TENDENSIYALAR: INKLYUZIV  
TA‘LIM VA EFL/ESPDA INNOVATSIYALAR\* XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN  
2026-YIL 10-APREL**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA‘LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI**

**“CHET TILLARNI O‘QITISHDA YANGI TENDENSIYALAR:  
INKLYUZIV TA‘LIM VA EFL/ESPDA INNOVATSIYALAR”**

**MAVZUSIDAGI  
Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani materiallari  
TO‘PLAMI**

**2026-yil 10-aprel**

**TASHKENT STATE UNIVERSITY OF ORIENTAL STUDIES**

**“NEW TRENDS IN FOREIGN LANGUAGE TEACHING:  
INCLUSIVE EDUCATION AND INNOVATIONS IN EFL/ESP”**

**Articles of International scientific- theoretical conference on  
April -10, 2026**

**Toshkent -2026**

**Articles of international scientific-theoretical conference on “New trends in foreign language teaching: inclusive education and innovations in EFL/ESP”.**  
TSUOS. –2026. – 411p

**Editor-in-Chief:**

*Marxabo Abdullayeva, PhD, Associate professor*

**Reviewer:**

*Saodat Saidakbarova, PhD, Associate Professor,  
Head pf the Department of Western Languages*

**Editors:**

*Musoyev Anvar, Abidova Zilola, Raxmonberdiyeva Karima, Askarova Shakhnoza,  
Komilova Dildora, Jalolova Iroda, Artikova Lobar, Ergesheva Nazira, Yunisova Dildora,  
Khamrabayeva Shirin*

The international scientific-theoretical conference entitled “**New Trends in Foreign Language Teaching: Inclusive Education and Innovations in EFL/ESP,**” organized by Tashkent State University of Oriental Studies, is devoted to the exploration of contemporary trends, innovative pedagogical approaches, and current issues in the field of foreign language education. The conference serves as an academic platform for discussing scholarly research related to inclusive practices in EFL/ESP instruction, artificial intelligence and digital technologies in language education, applied linguistics, pedagogical leadership, educational management, and intercultural communication. The proceedings volume comprises scientific articles addressing effective methodologies in language teaching, global competencies, and innovative educational technologies within modern educational contexts.

The authors are fully responsible for the content of the articles included in this proceedings volume, including the validity of scientific conclusions, factual accuracy, and any possible errors or shortcomings contained therein.

Xulosa qilib aytganda, inkluziv ta'lim orqali xorijiy va rus tillarini o'qitish jarayonini takomillashtirish, zamonaviy metodlarni keng joriy etish hamda pedagoglarning kasbiy kompetensiyasini oshirish bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir. Bu esa kelajakda har tomonlama rivojlangan, raqobatbardosh va ijtimoiy faol shaxslarni tarbiyalashga xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. Inklusiv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi. – Toshkent, 2020. – 25 b.
2. Выготский Лев Семенович Педагогическая психология. – Москва: Педагогика, 1991. – 480 с.
3. Krashen Stephen S. Principles and Practice in Second Language Acquisition. – Oxford: Pergamon Press, 1982. – 202 p.
4. UNESCO. Guidelines for Inclusion: Ensuring Access to Education for All. – Paris, 2005. – 45 p.
5. Shakhnoza Ikramovna Yakubova, Liliya Xamzayevna Belix. STYLISTIC TRANSFORMATIONS IN RUSSIAN-UZBEK TRANSLATION AND THEIR SIGNIFICANCE IN THE EDUCATIONAL PROCESS. (2026). *International Journal of Artificial Intelligence*, 6(02), 2354-2357. <https://www.academicpublishers.org/journals/index.php/ijai/article/view/11427>

## **INGLIZ TILI O'QITISHDA BLENDED LEARNING YONDASHUVI**

**Fuzaylova Nargiza Abdusamatovna**  
O'qituvchi, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti  
[nargizafuzaylova89@gmail.com](mailto:nargizafuzaylova89@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ingliz tili ta'limida aralash ta'lim (blended learning) yondashuvining pedagogik, psixologik va metodik jihatlari mukammal tarzda o'rganiladi. Tadqiqot aralash ta'limning nazariy asoslarini, xususan, uning ta'rifini, afzalliklarini, o'quv jarayoniga ta'sirini va turli xil modellarini o'z ichiga oladi. Asosiy e'tibor aralash ta'limning ingliz tili darslariga muvaffaqiyatli tatbiq etilishi uchun zarur shart-sharoitlarni, shuningdek, o'quvchilarning o'zlashtirish darajasi, motivatsiyasi va mustaqil fikrlash qobiliyatlariga ta'sirini tahlil qilishga qaratilgan. Tajriba-sinov ishlarining natijalari, so'rovnomalar va testlar aralash ta'lim o'quvchilarning motivatsiyasini oshirishi, ta'lim sifatini sezilarli darajada yaxshilashi va o'quv jarayonini individuallashtirish imkonini berishini ko'rsatdi. Tadqiqot so'ngida ingliz tili o'qituvchilari uchun blended learningdan samarali foydalanish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan bo'lib, bu ularga zamonaviy ta'lim talablariga moslashishiga ko'maklashadi.

**Kalit so'zlar:** blended learning, flipped learning, moslashuvchanlik, interfaollik, shaxsiylashtirilgan ta'lim, raqamli kompetensiya.

**Annotation:** This article thoroughly examines the pedagogical, psychological, and methodological aspects of the blended learning approach in English language

education. The research covers the theoretical foundations of blended learning, specifically its definition, advantages, impact on the learning process, and various models. The main focus is on analyzing the necessary conditions for the successful implementation of blended learning in English lessons, as well as its influence on students' level of comprehension, motivation, and independent thinking skills. The results of experimental trials, surveys, and tests demonstrated that blended learning enhances student motivation, significantly improves the quality of education, and enables the individualization of the learning process. At the conclusion of the research, practical recommendations were developed for English language teachers on the effective use of blended learning. These recommendations will assist them in adapting to modern educational requirements.

**Keywords:** blended learning, flipped learning, flexibility, interactivity, personalized learning, digital competence.

**Аннотация:** Данная статья тщательно исследует педагогические, психологические и методические аспекты смешанного обучения в преподавании английского языка. Исследование охватывает теоретические основы смешанного обучения, а именно его определение, преимущества, влияние на учебный процесс и различные модели. Основное внимание уделяется анализу необходимых условий для успешной реализации смешанного обучения на уроках английского языка, а также его влиянию на уровень понимания, мотивации и самостоятельного мышления учащихся. Результаты экспериментальных испытаний, опросов и тестов показали, что смешанное обучение повышает мотивацию учащихся, значительно улучшает качество образования и позволяет индивидуализировать учебный процесс. По итогам исследования были разработаны практические рекомендации для преподавателей английского языка по эффективному использованию смешанного обучения. Эти рекомендации помогут им адаптироваться к современным образовательным требованиям.

**Ключевые слова:** смешанное обучение, гибкость, интерактивность, персонализированное обучение, цифровая компетенция.

**Kirish:** Zamonaviy ta’lim tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi va raqamli transformatsiya jarayonlari yangi pedagogik yondashuvlarni, jumladan, “blended learning”(aralash ta’lim) metodikasini keng qo’llash imkoniyatini yaratdi. “Blended learning” – bu an’anaviy (offline) va raqamli (onlayn) ta’lim usullarini uyg’unlashtirib, o’quv jarayonini yanada samarali, moslashuvchan va shaxsiylashtirilgan qilishga qaratilgan innovatsion yondashuvdir.

“Blended learning” yondashuvi aynan shu talablarga javoban, ingliz tilini o’qitish jarayonida an’anaviy darsliklar, didaktik materiallar bilan birga onlayn kurslar, interaktiv platformalar (LMS – Moodle, Google Classroom), mobil ilovalar (Duolingo, Quizlet) va multimedia resurslardan (videodarslar, podcastlar, virtual sinflar) strategik foydalanish imkonini beradi. Bu metodika nafaqat o’quvchilarning mustaqil ishlash qobiliyatini oshiradi, balki ularga individual tarzda bilim olish, mavzularni takrorlash va amaliyotda qo’llash uchun qulay sharoit yaratadi.

**Adabiyotlar sharhi:** Ushbu maqolada xorijiy tilni o'qitishdagi zamonaviy metodlar, multimodal ta'lim yondashuvlari, raqamli vositalar asosida ta'lim berish bo'yicha respublika va xorijiy mutaxassislarning ilmiy ishlari tahlil qilindi. Ayniqsa quyidagi adabiyotlarga tayanildi:

1. Bonk, C. J., & Graham, C. R. (2006). *The Handbook of Blended Learning: Global Perspectives, Local Designs*. San Francisco: Pfeiffer Publishing.
2. Dziuban, C. D., Moskal, P. D., & Hartman, J. (2018). *Blended learning: A dangerous idea? The Internet and Higher Education*
3. Garrison, D. R., & Kanuka, H. (2004). *Blended learning: Uncovering its transformative potential in higher education. The Internet and Higher Education*
4. Graham, C. R. (2006). *Blended learning systems*. In C. J. Bonk & C. R. Graham (Eds.), *The Handbook of Blended Learning: Global Perspectives, Local Designs* (pp. 3-21). San Francisco: Pfeiffer Publishing.
5. Hrastinski, S. (2019). *What do we mean by blended learning? TechTrends*
6. Singh, H. (2003). *Building effective blended learning programs. Educational Technology*, 43(6), 51-54.
7. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021-yil 10-martdagi Buyrug'i №45. "Blended learning (aralash ta'lim) texnologiyalarini ta'lim muassasalarida joriy etish va rivojlantirish bo'yicha yo'l xaritasi".
8. Abdullayeva, N. (2022). "Ingliz tili o'qitishda blended learningning samaradorligi". *Pedagogika va Psixologiya jurnal*
9. Karimova, S., & Tursunov, B. (2021). "Onlayn va an'anaviy ta'limni uyg'unlashtirish: blended learningning afzalliklari va kamchiliklari". *Zamonaviy Ta'lim Texnologiyalari*, 5(1), 12- Shuningdek, ushbu tadqiqotda bir qancha onlayn manbalar YouTube EDU, BBC Learning English, TED-Ed, National Geographic Learning singari platformalarning tahlili asosida videobloglarning ta'limiy samaradorligi o'rganildi.

**Metodologiya:** Blended learning, yoki aralash ta'lim, zamonaviy ta'lim jarayonida an'anaviy yuzma-yuz o'qitish usullari bilan onlayn ta'lim vositalarini birlashtirish orqali ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan samarali yondashuvdir. Ushbu yondashuv ta'lim jarayonini yanada moslashuvchan, interaktiv va individual ehtiyojlarga moslashtirilgan shaklga olib keladi. Garrison va Kanuka (2004) blended learningni an'anaviy ta'lim muhitini onlayn o'qitish vositalari bilan uyg'unlashtirish orqali ta'lim sifatini yaxshilash usuli deb ta'riflaydilar. Ularning fikricha, blended learning o'quvchilarga o'z vaqtlarini va o'rganish resurslarini boshqarishda keng imkoniyatlar yaratadi hamda o'qituvchilarga ta'lim jarayonini individuallashtirish imkonini beradi. Graham (2006) esa blended learningni an'anaviy va onlayn ta'lim usullarining maqsadga muvofiq integratsiyasi deb ataydi va bu yondashuvda har ikkala usulning afzalliklari birgalikda qo'llanilishini ta'kidlaydi. Blended learningning mohiyati shundaki, u ta'lim jarayonida yuzma-yuz darslar bilan bir qatorda onlayn platformalarda mustaqil o'rganish, interaktiv mashg'ulotlar va o'zaro fikr almashish imkoniyatlarini yaratadi. Bu esa o'quvchilarga o'zlarining shaxsiy ehtiyojlari va imkoniyatlariga mos ravishda ta'limni olish imkonini beradi.

Singh (2003) blended learningni o'quvchilarning faolligini oshiruvchi samarali ta'lim shakli sifatida ko'radi, chunki u o'quvchilarning mustaqil ishlashini rag'batlantiradi va ta'lim jarayonini yanada qiziqarli qiladi. Blended learningning eng asosiy afzalliklaridan biri uning moslashuvchanligidir. Bu yondashuv o'quvchilarga darslarni o'z vaqtlarida va qulay sharoitda o'rganish imkonini beradi, bu ayniqsa ish bilan band bo'lgan yoki geografik jihatdan uzoqda yashovchi talaba va o'quvchilar uchun muhimdir. Bonk va Graham (2006) ta'kidlaganidek, blended learning o'quvchilarning ta'lim jarayonidagi faolligini oshiradi, chunki ularni mustaqil o'rganishga, guruh ishlarida ishtirok etishga va interaktiv mashg'ulotlarda qatnashishga undaydi. Bundan tashqari, blended learning individuallashtirilgan ta'limni ta'minlaydi, ya'ni o'quvchilarning turli bilim darajalari va qobiliyatlariga mos keladigan o'quv yo'nalishlarini yaratishga imkon beradi, bu esa ta'lim samaradorligini oshiradi. Garrison va Kanuka (2004) fikriga ko'ra, blended learning ta'lim sifatini yaxshilashda muhim ahamiyatga ega, chunki onlayn materiallar o'quvchilarga mavzuni chuqurroq o'rganish imkonini beradi, yuzma-yuz mashg'ulotlar esa tushunmovchiliklarni bartaraf etishda yordam beradi. Shuningdek, blended learning ta'lim resurslaridan samarali foydalanishga imkon beradi, chunki ta'lim materiallari elektron platformalarda jamlanadi va o'qituvchilar uchun ular bilan ishlash qulaylashadi. Hrastinski (2019) blended learning yordamida o'quvchilar o'rtasida ijtimoiy o'zaro ta'sir rivojlanishini ta'kidlaydi, bu esa o'z navbatida o'quvchilarning ijtimoiy ko'nikmalarini oshirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, blended learning o'qituvchilarning ish yukini kamaytirishi mumkinligini qayd etadi, chunki onlayn resurslar yordamida takroriy tushuntirishlar va testlarni avtomatlashtirish mumkin.

Ilmiy tadqiqotlar blended learningning samaradorligini tasdiqlaydi. Means va boshqalar (2013) o'tkazgan meta-tahlil natijalariga ko'ra, blended learning an'anaviy o'qitishga nisbatan o'quvchilarning bilimlarini chuqurroq o'zlashtirishga va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Dziuban va boshqalar (2018) esa blended learningning ta'lim sifati va o'quvchilarning o'z-o'zini boshqarish ko'nikmalarini oshirishdagi rolini ta'kidlaydilar, bunda blended learning ta'lim muassasalarining raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Shunga qaramay, blended learningning ba'zi cheklovlari ham mavjud.

Garrison va Kanuka (2004) ta'kidlaganidek, texnologik imkoniyatlarning cheklanganligi, o'quvchilar va o'qituvchilarning yangi ta'lim usullariga moslashishdagi qiyinchiliklar va sifatli onlayn materiallar yaratishdagi muammolar blended learningni joriy etishda to'siq bo'lishi mumkin. Shu bois, blended learningni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun ta'lim muassasalari va o'qituvchilarning metodik hamda texnik tayyorgarligi zarur hisoblanadi. Umuman olganda, blended learning zamonaviy ta'lim tizimida an'anaviy va onlayn ta'limning eng yaxshi tomonlarini birlashtiruvchi samarali yondashuv sifatida qaraladi. Uning mohiyati ta'lim jarayonini moslashuvchan, interaktiv va individual ehtiyojlarga moslashtirilgan shaklga olib kelishdan iborat. Blended learning o'quvchilarning motivatsiyasini oshiradi, ta'lim sifatini yaxshilaydi va resurslardan samarali foydalanishni ta'minlaydi. Ilmiy tadqiqotlar ham blended learningning an'anaviy

ta'limga nisbatan samaradorligini tasdiqlaydi va uning ta'lim tizimida keng joriy etilishini tavsiya qiladi. Shu bilan birga, blended learningni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun muassasalarning texnologik bazasi va o'qituvchilarning malakasini oshirish zarurdir.

**Natijalar:** Blended learning (aralash ta'lim) yondashuvi zamonaviy ta'lim jarayonida an'anaviy yuzma-yuz ta'lim usullari bilan onlayn ta'lim vositalarini uyg'unlashtirish orqali ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan innovatsion yondashuv hisoblanadi. Ushbu yondashuv o'quvchilarga o'z vaqtida, o'z sharoitida va individual ehtiyojlariga mos ravishda bilim olish imkoniyatini beradi. Shunga qaramay, blended learningni ta'lim muassasalarida joriy etish jarayonida turli xil muammolar yuzaga keladi. Ushbu muammolarni aniqlash va ularni samarali hal qilish blended learning yondashuvining muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun muhimdir.

Blended learningni joriy etishdagi eng asosiy muammolardan biri - texnologik infratuzilmaning yetishmasligidir. Garrison va Kanuka (2004) ta'kidlaganidek, ko'plab ta'lim muassasalari blended learningni samarali qo'llash uchun zarur bo'lgan kompyuterlar, internet tarmoqlari, zamonaviy dasturiy ta'minot va texnik vositalarga ega emas. Ayniqsa, qishloq joylarda yoki resurslari cheklangan hududlarda bu muammo yanada keskinroq namoyon bo'ladi. Texnologik imkoniyatlarning yetishmasligi o'quvchilarning onlayn mashg'ulotlarda faol ishtirok etishiga to'siq bo'lib, blended learningning asosiy afzalliklaridan foydalanishni cheklaydi.

Ikkinchi muammo - o'qituvchilarning blended learning texnologiyalari va metodologiyasiga tayyor emasligi. Graham (2006) ta'kidlaganidek, ko'plab o'qituvchilar an'anaviy ta'lim usullaridan onlayn va aralash ta'lim formatlariga o'tishda qiyinchiliklarga duch keladilar. Ularning texnik savodxonligi yetarli emasligi, yangi o'quv platformalarini samarali boshqarishdagi qiyinchiliklar, metodik jihatdan yangi o'qitish shakllarini o'zlashtirishdagi muammolar blended learningning samarali joriy etilishiga to'sqinlik qiladi. Bundan tashqari, o'qituvchilar orasida blended learningning afzalliklari va imkoniyatlari haqida yetarlicha ma'lumot yetishmasligi ham muammo hisoblanadi.

Uchinchi muammo - o'quvchilarning texnologiyalarga bo'lgan tayyorligi va motivatsiyasi. Hrastinski (2019) ta'kidlaganidek, barcha o'quvchilar blended learningga moslashishga tayyor emaslar. Ba'zi o'quvchilar onlayn ta'limda o'zini mustaqil boshqarish, o'z vaqtini rejalashtirishda qiyinchiliklarga duch keladi. Shuningdek, texnologiyalarga nisbatan qiziqish va o'zlashtirish darajasi turlicha bo'lishi mumkin. Bu esa blended learning jarayonida o'quvchilarning faol ishtirokini cheklaydi.

To'rtinchi muammo - sifatli onlayn ta'lim materiallari va resurslarining yetishmasligi. Blended learningning samarali bo'lishi uchun yuqori sifatli, interaktiv va didaktik jihatdan to'g'ri ishlab chiqilgan elektron resurslar zarur. Singh (2003) ta'kidlaganidek, sifatli onlayn materiallar yaratish ko'p vaqt va malakani talab qiladi, shuning uchun ko'plab ta'lim muassasalari va o'qituvchilar bunday resurslarni tayyorlash yoki sotib olish imkoniga ega emaslar.

Beshinchi muammo - ta'lim jarayonini baholash va monitoring qilishdagi qiyinchiliklar. Blended learningda o'quvchilarning bilim darajasini an'anaviy

usullardan tashqari onlayn testlar, portfoliolar, loyiha ishlar orqali baholash talab etiladi. Garrison va Kanuka (2004) ta'kidlaganidek, ko'plab o'qituvchilar va ta'lim muassasalari blended learningda baholashning yangi usullarini samarali qo'llashda qiyinchiliklarga duch keladilar.

**Muhokama:** Ushbu muammolarning yechimlari sifatida quyidagi choralar taklif etiladi. Birinchidan, ta'lim muassasalari texnologik infratuzilmani yaxshilashga katta e'tibor qaratishlari lozim. Bu uchun davlat va xususiy sektor hamkorligida investitsiyalar jalb qilinishi, zamonaviy kompyuterlar, tezkor internet tarmoqlari va o'quv platformalari yaratish zarur. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 25-martdagi 167-sonli qarori ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalarni joriy etish va rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlarni belgilab, aynan infratuzilmani yaxshilashga urg'u beradi.

Ikkinchidan, o'qituvchilarning blended learning texnologiyalari va metodologiyasini o'zlashtirishlari uchun muntazam malaka oshirish kurslari tashkil etilishi kerak. Bu kurslar o'qituvchilarga zamonaviy ta'lim platformalarini boshqarish, interaktiv darslar tashkil etish va o'quvchilarning individual ehtiyojlarini hisobga olish ko'nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi (Bonk va Graham, 2006). Shuningdek, o'qituvchilar uchun metodik qo'llanmalar, video darslar va onlayn seminarlar yaratish ham samarali bo'ladi.

Uchinchidan, o'quvchilarni blended learningga tayyorlash va ularning motivatsiyasini oshirish uchun o'quv jarayonida qo'shimcha qo'llab-quvvatlash tizimlari joriy etilishi lozim. Masalan, o'quvchilar uchun texnik yordam xizmatlari, o'quvchi mentorlik dasturlari va motivatsion treninglar tashkil qilinishi mumkin (Hrastinski, 2019). Bundan tashqari, o'quvchilarning o'z-o'zini boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan maxsus mashg'ulotlar ham foydali bo'ladi.

To'rtinchidan, sifatli onlayn ta'lim materiallari yaratish uchun ta'lim muassasalari va o'qituvchilar o'rtasida hamkorlikni kuchaytirish zarur. Bu maqsadda elektron resurslar ishlab chiqish uchun maxsus guruhlar tashkil qilinishi, xalqaro tajribalarni o'rganish va o'zlashtirish, shuningdek, mavjud resurslarni moslashtirish bo'yicha ishlar olib borilishi mumkin (Singh, 2003). Shuningdek, davlat tomonidan onlayn ta'lim materiallarini yaratish va tarqatish uchun grantlar ajratilishi samarali bo'ladi.

Beshinchidan, blended learningda baholash va monitoring tizimlarini takomillashtirish uchun innovatsion baholash usullari joriy etilishi kerak. Bu onlayn testlar, portfoliolar, loyiha asosida baholash va o'z-o'zini baholash metodlarini o'z ichiga oladi. O'qituvchilar uchun bu usullarni qo'llash bo'yicha treninglar tashkil etilishi muhimdir (Garrison va Kanuka, 2004).

**Xulosa:** Ushbu maqola aralash ta'lim (blended learning) yondashuvining tushunchasi, mohiyati, afzalliklari, ingliz tilini o'qitishdagi o'rni, joriy etishdagi muammolar va ularning yechimlari hamda ingliz tili darslarida blended learning yondashuvini qo'llash bo'yicha tajriba-sinov ishlariga bag'ishlandi.

Loyihaning birinchi qismi blended learning yondashuvining nazariy asoslarini o'rganishga qaratildi. Blended learning an'anaviy yuzma-yuz ta'limni onlayn texnologiyalar bilan uyg'unlashtirgan ta'lim shakli sifatida aniqlandi. Uning asosiy

mohiyati – o'quvchilarga moslashuvchan, shaxsiylashtirilgan va qulay ta'lim tajribasini taqdim etishdir.

Blended learningning bir qator afzalliklari aniqlandi:

- Moslashuvchanlik: O'quvchilar o'zlariga mos keladigan vaqt va joyda o'qishlari mumkin.

- Shaxsiylashtirish: O'qituvchilar har bir o'quvchining ehtiyojlariga moslashtirilgan ta'lim tajribasini yaratishlari mumkin.

- Qulaylik: O'quv materiallariga istalgan vaqtda va istalgan joydan kirish mumkin.

- O'zaro ta'sir: Blended learning o'quvchilar va o'qituvchilar o'rtasida, shuningdek, o'quvchilarning o'zlari o'rtasida o'zaro ta'sirni kuchaytiradi.

- Samaradorlik: Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, blended learning an'anaviy ta'limga nisbatan yaxshiroq natijalarga olib kelishi mumkin (Graham, 2013).

Maqola asosan ingliz tilini o'qitishda blended learning yondashuvining o'rnini o'rganishga qaratildi. Ingliz tili global aloqa vositasi sifatida o'quvchilarning til ko'nikmalarini rivojlantirishda blended learningning ahamiyati katta ekanligi aniqlandi. Blended learning ingliz tilining barcha ko'nikmalarini (tinglash, gapirish, o'qish, yozish) rivojlantirishga yordam berishi, o'quvchilarning motivatsiyasini oshirishi va ularning faolligini kuchaytirishi mumkin (Stockwell, 2012).

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Bonk, C. J., & Graham, C. R. *The Handbook of Blended Learning: Global Perspectives, Local Designs*. San Francisco: Pfeiffer Publishing, 2006.

2. Dziuban, C. D., Moskal, P. D., & Hartman, J. . *Blended learning: A dangerous idea? The Internet and Higher Education*, 18, 2018. 15-23.

3. Garrison, D. R., & Kanuka, H. *Blended learning: Uncovering its transformative potential in higher education. The Internet and Higher Education*, 7(2), 2004. 95-105.

4. Graham, C. R. *Blended learning systems*. In C. J. Bonk & C. R. Graham (Eds.), *The Handbook of Blended Learning: Global Perspectives, Local Designs* 2006. pp. 3-21.

5. Hrastinski, S. . *What do we mean by blended learning? TechTrends*, 63(5), 2019. 564-569.

6. Means, B., Toyama, Y., Murphy, R., Bakia, M., & Jones, K. *Evaluation of Evidence-Based Practices in Online Learning: A Meta-Analysis and Review of Online Learning Studies*. US Department of Education. 2013

7. Singh, H. *Building effective blended learning programs. Educational Technology*, 43(6), 2003. 51-54.

8. Abdullayeva, N. "Ingliz tili o'qitishda blended learningning samaradorligi". *Pedagogika va Psixologiya jurnal*, 2(4), 2022. 45-53.

9. Karimova, S., & Tursunov, B. "Onlayn va an'anaviy ta'limni uyg'unlashtirish: blended learningning afzalliklari va kamchiliklari". *Zamonaviy Ta'lim Texnologiyalari*, 5(1), 2021.

10. Nargiza Abdusamatovna Fuzaylova. (2024). ANALYSIS OF THE EXPRESSION AND SPECIFIC CHARACTERISTICS OF NEOLOGISMS IN

TRANSLATION. Ta’lim Innovatsiyasi Va Integratsiyasi, 21(2), 175–180. Retrieved from <http://web.journal.ru/index.php/ilmiy/article/view/5109>

11. Fuzaylova N.A. O‘tkir Hoshimov asarlarida ichki kechinmalarning ifodalanish usullari (“Ikki eshik orasi” asari misolida). Buxoro davlat universiteti ilmiy axboroti. — 2025. — № 6 (6 июн). — B. 23–28.

## THE ROLE OF TECHNOLOGY IN MODERN EDUCATION

**Ibragimova E’zoza Timurovna**  
Chinese philology, TSUOS  
[ezozai.2005@gmail.com](mailto:ezozai.2005@gmail.com)

**Khabibullaeva Makhliyo Erkinovna**  
Senior teacher, TSUOS  
[khabibullaevamahliyo@gmail.com](mailto:khabibullaevamahliyo@gmail.com)

**Abstract:** In the modern world, technology plays a significant role in the development of education. This article examines how digital tools and online platforms influence the learning process. It highlights the advantages of technology, such as accessibility and interactivity, as well as some challenges, including distraction and inequality. The study shows that technology, when used effectively, can improve the quality of education and support both students and teachers.

**Keywords:** Technology, modern education, online learning, digital tools, interactivity, teaching methods, educational challenges

**Аннотация:** В современном мире технологии играют важную роль в развитии образования. В данной статье рассматривается влияние цифровых инструментов и онлайн-платформ на процесс обучения. В ней подчеркиваются преимущества технологий, такие как доступность и интерактивность, а также некоторые проблемы, включая отвлекающие факторы и неравенство. Исследование показывает, что при эффективном использовании технологии могут повысить качество образования и поддерживать как студентов, так и преподавателей.

**Ключевые слова:** Технологии, современное образование, онлайн-обучение, цифровые инструменты, интерактивность, методы преподавания, проблемы образования

**Annotatsiya:** Zamonaviy dunyoda texnologiya ta’lim rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Ushbu maqola raqamli vositalar va onlayn platformalarning o‘quv jarayoniga ta’sirini o‘rganadi. Unda texnologiyaning qulaylik va interaktivlik kabi afzalliklari, shuningdek chalg‘itish va tengsizlik kabi muammolari yoritilgan. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, texnologiyadan samarali foydalanilganda u ta’lim sifatini oshirishi hamda talabalar va o‘qituvchilarni qo‘llab-quvvatlashi mumkin.

**Kalit so‘zlar:** Texnologiya, zamonaviy ta’lim, onlayn ta’lim, raqamli vositalar, interaktivlik, o‘qitish usullari, ta’limdagi muammolar